

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 24/30.10. 2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

DONONOV JASUR URAL O‘G‘LI

**JANUBI-G‘ARBIY HISORNING TURLI DARAJADAGI NEOTEKTONIK
HARAKATLARI VA DEFORMATSIYALARINING KINEMATIKASI
VA DINAMIKASI**

04.00.03 - Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA - MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Geologiya - mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого - минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological - mineralogical sciences**

Dononov Jasur Ural o‘g‘li

Janubi - G‘arbiy Hisorning turli darajadagi neotektonik harakatlari va deformatsiyalarining kinematikasi va dinamikasi..... 3

Дононов Жасур Урал угли

Кинематика и динамика разноранговых составляющих неотектонических движений и деформаций Юго – Западного Гиссара..... 21

Dononov Jasur Ural ugli

Kinematics and dynamics of neotectonic movements and deformations of different levels of South-West Hisar..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 24/30.10. 2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

DONONOV JASUR URAL O‘G‘LI

**JANUBI-G‘ARBIY HISORNING TURLI DARAJADAGI NEOTEKTONIK
HARAKATLARI VA DEFORMATSIYALARINING KINEMATIKASI
VA DINAMIKASI**

04.00.03 - Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA - MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/GM113 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (lotin, rus, ingliz (rezyume))¹ Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ingeo.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgari.

Ilmiy rahbar:

Umurzakov Raximjan Abdurazakovich
geologiya - mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turapov Mirali Kamalovich
geologiya - mineralogiya fanlari doktori, professor

Alimuxamedov Ilyom Mizratovich
geologiya - mineralogiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

“Regionalgeologiya” DUK

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «15» sentabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi, (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel: (+99871) 209-11-32 (5504); E-XAT: ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel: (+99871) 209-11-32 (5505).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «25» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil «25» avgustdagi 15-raqamli reestr bayonnomasi).



X.D.Ishbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
g.-m.f.d., prof.

E.M.Amirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
g.-m.f.f.d. (PhD)

P.S.Sultonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, g.-m.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida so‘nggi yillarda mineral - xom ashyo bazasini boyitish imkoniyatlari, tabiiy va texnogen ofatlar ehtimolini har tomonlama o‘rganish va hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammolarning hal bo‘lishi hududlarning geologik rivojlanishini o‘rganishdagi ilmiy tadqiqot natijalari bilan belgilanadi. Shu bois, yer qa‘rini tuzilishini va rivojlanishini o‘rganish va yangi konlar ochish uchun zamin yaratish dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada geologik tadqiqotlarining yangi metodologiyasi asosidagi usullar qo‘llanilishi asosida foydali qazilma konlarini hosil bo‘lishi hamda joylashish qonuniyatlarini o‘rganish, ularni qidiruv-razvedkasini ilmiy asoslarini yaratish nazariy va amaliy manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida foydali qazilma konlarini shakllanishida tektonik va neotektonik ma‘lumotlarni asosiy ta‘sir etuvchi omillar sifatida chuqur o‘rganish va ilmiy asoslar yaratilishida hisobga olish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tabiatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib tizimli yondashuv asosida geologik sistemalarini ajratish, yerning tarixiy, ayniqsa neotektonik davrdagi rivojlanish xususiyatlarini, tuzilmalarning kinematikasini, kuchlanish maydonlarini aniqlab dinamik modellarini tuzish orqali yangi konlar ochish, istiqbolli maydonlar ajratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda foydali qazilma konlarini izlov-razvedka ishlarini rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilib, natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida «Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish.»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada qidiruvni yangi metodologik ishlanmalar va usullarni yaratish asosida olib borilishida rutbali tahlilga asoslangan yangi avlod turli darajadagi tektonik xaritalar tuzish, tuzilmalarning kinematik va dinamik xususiyatlarini aniqlanishi va tektodinamik modellar tuzilishi yangi natijalar olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi PQ-3578–son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, 2019-yil 23-iyuldagi PQ – 4401 – son “Yer qa‘rini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021-yillarda mineral – xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2022–2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Geologiya – qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son qarorlari, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi» PF – 60-son Farmoni.

Administratsiyasining 2022-yil 15 – martdagi 04 – 593 – son topshirig‘i, 2022-yil 3-martdagi Geologiya fanlari universitetida o‘tkazilgan yig‘ilishning 1–son bayoni 10-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida Respublika oliy ta‘lim muassasalari talabalarining Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan “Darband” o‘quv–dala amaliyot poligonlarida qo‘shma amaliyot o‘tash grafigi ijrosini ta‘minlash va Davlat rahbarining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida geologiya sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni faollashtirish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining – VIII “Yer haqidagi fanlari (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral-xom ashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yer qobig‘ining harakatlanish va deformatsiyalanish mexanizmlarini o‘rganish insoniyatni qadimgi zamonlardan qiziqtirib kelgan va Abu Rayxon Beruniy (XI asr), Abu Ali Ibn Sino (XI asr), Sultan Muhammad al Balxi (XVI asr), Muhammad Toxir ibn Abul Qosim (XVII asr) ishlarida yoritilgan. Asosiy tadqiqotlar o‘tgan asrga to‘g‘ri kelgan va A.P.Karpinskiy, V.V.Belousov, P.N.Kropotkin, V.E.Xain, Yu.A.Kosigin, G.P.Gorshkov, N.I.Nikolayev, M.V.Gzovskiy, K.Aki (Yaponiya), H.Cloos, P.Bankvits (Olmoniya), J.Anjelier (Fransiya), O‘zbekistonlik olimlar – H.M.Abdullayev, M.A.Axmadjanov, O.M.Akramxodjaye, G.A.Mavlyanov, I.X.Xamrabayev, A.G.Babayev ishlarida asosiy tamoyillarini ishlab chiqishgan.

Bu masalalarga oid ikki nazariy asoslar hukm surgani kuzatiladi: klassik geologiyadagi geosinklinal nazariyasi va A.Vegenerning mobilizm, yoki plitalar tektonikasi tassavurlari. Ammo, keyinchalik geologiyaga tizimli yondashuv va fizikaning kirib kelishi yangi ma‘lumotlar olish imkoniyatini yaratdi, Tektonofizika rivojlanishi, keyinchalik tektodinamik sistemalar tushunchalari ko‘pgina yechilmagan masalalarga oydinlik kirita boshladi. O‘zbekiston sharoitida yangi zamon va zamonaviy tektodinamikasi zilzilashunoslikga oid sesmogen uzilmalar hosil bo‘lish mexanizmlari to‘g‘risidagi bilimlar olindi (R.N.Ibragimov, A.K.Xodjaye, R.A.Umurzakov va b.). Oxirgi 15-20 yillarda tog‘ massivlaridagi burmalar hosil bo‘lish masalasi bo‘yicha yangi ilmiy ishlar paydo bo‘ldi (A.V.Vikulin, O.B.Gintov, Yu.L.Rebetskiy) va geodinamik jarayonlarning yangi qirralari ochildi. Ma‘dan hosil bo‘lish sharoitlarini eksperimental modellashtirish asosida (X.A.Akbarov, M.K.Turapov) oltin-ma‘danli Qizilolma, Kauldi, Chodak, Kochbulak konlarining modellari tuzilgan va tektonofizik qonuniyatlari o‘rganilgan, Mezozoy-Kaynozoy tarixida uch rutbaga tegishli tektodinamik sistemalari ajratilgan (R.A.Umurzakov) va regionning geologik rivojlanishidagi kuchlanish maydonlarining 5 ta bosqichi ta‘rifi berilgan.

O‘zbekiston hududi yer qobig‘ining neotektonik harakatlarini turli rutbalarga ajratib o‘rganish faqat mayda (1: 1000000) mashtabda umumiy Tyan Shanning g‘arbiy qismi va Turon platformasi bilan tutash regionida amalga oshirilgan edi. Bunda uch rutbaga tegishli neotektonik deformatsiya va tektonik kuchlanish

maydonlari tiklangan, yer qobig'ining neotektonik deformatsiya mexanizmini ifodalovchi tektodinamik model tuzilgan. Bu tadqiqotlar olib borilishida Janubi-G'arbiy Hisor regional kuzatuvlari bilan chegaralangan edi. Mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada rutbali tadqiqotlarning hali yetarli darajada o'rganilmagan Janubi-G'arbiy Hisor obyektida qo'llashga qaratilgan. Bu regiondagi tuzilmalarining hosil bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida xilma - xil fikrlar mavjud va ko'p masalalar bo'yicha aniqlik kiritilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy–tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Zamin neftgazliligining bashoratida geodinamik yondashishni qo'llagan holda elektr razvedka va termogeokimyoviy syomkalarni komplekslashtirish asosida lokal uglevodorod to'plamlarini izlash va razvedkasi metodlarini takomillashtirish» (2015-2017) mavzusidagi amaliy (A-13-22) loyiha, «Hududlarni suv bosishi paytida lyoss gruntlarning muhandislik-geologik va seysmik xususiyatlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari» (2019-2020) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubi-G'arbiy Hisorning turli darajadagi neotektonik harakatlari va deformatsiyalarining kinematikasi va dinamikasi xususiyatlarini hamda hosil bo'lish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Janubi-G'arbiy Hisor hududi bo'yicha tektonik va neotektonik ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish;

rutbali tektodinamik yondoshuv metodologiyasi asosida neotektonik harakat va deformatsiyalarining turli darajadagi xaritalarini tuzish, ularni xususiyatlarini aniqlash;

tabiiy sharoitdagi tog' jinslari darzliklarining kinematik siljish belgilarini aniqlash va turli darajali kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarini tiklash.

darzliklar va yoriqlarning statistik o'lchovlari asosida turli darajadagi kuchlanish maydonlarini tiklash;

Janubi-G'arbiy Hisorning neotektonik davri uchun kuchlanish deformatsiyalanish modelini tuzish.

Tadqiqotning obyekti Janubi-G'arbiy Hisorning neotektonik tuzilmasi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Janubi-G'arbiy Hisorning turli darajadagi neotektonik harakatlari va deformatsiyalarining kinematikasi va dinamikasini aniqlash.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishi vazifalarini bajarishda Janubi-G'arbiy Hisor hududida ilk bor yangi rutbali tahlil metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan usullar qo'llanilgan, shu jumladan, tektonik harakatlarni turli darajadagi tarkibiy qismlariga ajratish - dekompozitsiya metodi, yer qobig'idagi kuchlanish maydonlarini tiklashning M.V.Gzovskiy metodi, darzliklar va yer yoriqlarini statistik o'lchovlariga asoslangan P.N.Nikolayev usuli, darzliklardagi kinematik belgilariga asoslangan O.I.Gushchenko metodi, tektonik bloklarning kechki kaynozoydagi umumiy harakat yo'nalishlarini tiklash R.A.Umurzakov metodi

qo'llanildi. Dala kuzatuv materiallarini yig'ishda keng doirada strukturaviy geologiya va geologik xaritalash usullari majmuasi, dala tektonofizik kuzatuv usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubi-G'arbiy Hisor bo'yicha ilk bor neotektonik harakat va deformatsiyalarining turli darajadagi xaritalari tuzilgan va ularni xususiyatlari aniqlangan;

Janubi-G'arbiy Hisorning neotektonik tuzilmalarining hamda tog' massivlaridagi turli kattalikdagi darzliklar va yoriqlarining makonda joylashish xususiyatlari aniqlangan;

tabiiy sharoitda yotgan qatlamlardagi kinematik siljish belgilari o'rganilgan va ular asosida hududning kechki kaynozoydagi turli darajadagi tektonik kuchlanish maydonlari rekonstruktsiya qilingan;

darzliklarning statistik o'lchovlari va tahlili asosida turli darajadagi neotektonik kuchlanish maydonlari aniqlangan va deformatsiyalanishning tektodinamik modeli tuzilgan;

Janubi-G'arbiy Hisor hududi misolida ilk bor rutbali neotektonik rayonlashtirishning yangi avlod xaritasini tuzish imkoniyatlari aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubi-G'arbiy Hisor hududi bo'yicha zamonaviy texnologiyalar yordamida umumlashtirilgan neotektonik xaritalari: Neotektonik harakat va deformatsiyalarining xaritasi (1:500 000); Turli darajadagi yer yoriqlari xaritasi (1:500 000), Boysun ko'tarilmasining Machay - Chorbog' oralig'ining batafsil yoriqlar xaritasi (1: 50 000) va geologik kesimlar (1:10 000) masshtabda tuzilgan;

Janubi-G'arbiy Hisor hududining birinchi, ikkinchi va uchinchi rutbalar darajasidagi neotektonik harakat va deformatsiyalanishining xaritalari (1:200 000) ishlab chiqilgan va ular asosida rutbali neotektonik rayonlashtirish xaritasi tuzilgan;

Janubi-G'arbiy Hisorning yer qobig'ida kechki kaynozoy davrida faol bo'lgan turli darajadagi tektonik kuchlanish maydonlari tiklangan va kuchlanish-deformatsiyalanish modeli ishlab chiqilgan;

rutbali tahlil asosidagi olingan natijalar bilan neft va gaz konlarining joylashish xususiyatlari tahlil qilingan va qidiruv ishlari uchun ahamiyatli bo'lgan neftgazlilikning asosiy neotektonik omillari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Dissertatsiya natijalarning ishonchliligi jahon miqyosida tan olingan dala kuzatuv usullarining qo'llanilishi, 70 dan ortiq dala kuzatuv punktlari ma'lumotlari, ularni ishlov berishda sinalgan usullaridan foydalanilganligi bilan, yuqori aniqlikdagi dasturiy (Surfer, Exel, Corel Draw, ArcGis va boshqa) vositalar ishlatilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubi - G'arbiy Hisor uchun ilk bor rutbali tahlil metodologiyasi qo'llanilishi asosida turli (uchta) darajadagi neotektonik harakatlar va deformatsiyalarining xususiyatlari, kechki kaynozoydagi kinematikasi hamda tektonik kuchlanish maydonlari aniqlanganligi, neotektonik

tuzilmalarning hosil bo'lish mexanizmlarining tektodinamik modellari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, rutbali tahlil asosidagi turli darajadagi neotektonik xaritalari, ular asosida yangi avlod rutbali neotektonik rayonlashtirish xaritalari tuzilganligi hamda ular bilan neft va gaz konlarining taqsimlanish xususiyatlari aniqlanganligi hamda istiqbol maydonlarini ajratish yangi imkoniyatlari ochilganligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Janubi - G‘arbiy Hisorning turli darajadagi neotektonik hamda rutbali neotektonik rayonlashtirish xaritalari” va “Janubi - G‘arbiy Hisorning rutbali neotektonik rayonlashtirishga asoslangan neftgazga istiqbol zonalari” natijalari asosida:

Janubi - G‘arbiy Hisor hududining ilk bor tuzilgan turli (birinchi, ikkinchi va uchinchi) darajadagi neotektonik deformatsion xususiyatlarini ifodalovchi xaritalari O‘zbekiston Respublikasi Tog‘ - kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DM ilmiy-amaliy faoliyatiga joriy qilingan. (2023-yil 20-fevraldagi 04/0228 - sonli ma’lumotnoma). Natijada, Janubi - G‘arbiy Hisor hududining geologik va geodinamik tuzilishiga aniqlik kiritilib yangi istiqbolli maydonlarini qidiruv - razvedka ishlarini samarasini oshirish imkoniyati yaratilgan;

Janubi - G‘arbiy Hisor hududining aniqlashtirilgan faol turli darajadagi yer yoriqlari joylashuvi va kinematik modeli O‘zbekiston Respublikasi Tog‘ - kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DM ilmiy - amaliy faoliyatiga joriy qilingan. (2023-yil 20-fevraldagi 04/0228 - sonli ma’lumotnoma). Natijada, Janubi - G‘arbiy Hisor hududida yer yoriqlari bilan bog‘liq foydali qazilma konlarini qidiruv- razvedka ishlarining aniqligini oshirish uchun zamin yaratilgan;

Janubi - G‘arbiy Hisor hududining birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali neotektonik deformatsiyalarining teskari aloqa ko‘rsatgich turiga asoslangan rutbali neotektonik rayonlashtirish xaritalari O‘zbekiston Respublikasi Tog‘ - kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DM ilmiy-amaliy faoliyatiga joriy qilingan. (2023-yil 20-fevraldagi 04/0228 - sonli ma’lumotnoma). Natijada, Janubi - G‘arbiy Hisor hududida qidiruv-razvedka ishlarining istiqbolli yo‘nalishlarini loyihalash imkoniyati yaratilgan;

Janubi - G‘arbiy Hisorning rutbali ma’lumotlar asosidagi neftgazga istiqbol zonalari xaritasi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘ - kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DM ilmiy - amaliy faoliyatiga joriy etilgan. (2023-yil 20-fevraldagi 04/0228 - sonli ma’lumotnoma). Natijada, birinchi navbatdagi geologik - geofizik qidiruv ishlarini rejalashtirish va samarali olib borishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining asosiy ilmiy natijalari 5 ta xalqaro konferensiyalarda, 4 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan: O‘zbekiston Respublikasining

Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan nashrlarda 4 ta mahalliy 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, 9 ta (5 ta xorijiy, 4 ta respublika anjumanlarda) turli konferensiya to'plamlarida.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, 57 ta rasm, 6 ta jadval, 2 ta geologik kesim, 93 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Neotektonik harakatlar va deformatsiyalar xususiyatlarini o'rganilishining holati**» deb nomlangan birinchi bobida yer qobig'ining harakatlanishi va deformatsiyasini o'rganishning qisqacha tarixi va tektonofizik tadqiqotlarining o'rni, hududlarning neotektonik tuzilishini va harakatlanishini o'rganishda yangicha metodologik yondoshish, tektodinamik sistemalarining ierarxik modeli, Janubi-G'arbiy Hisorning geologik tuzilishiga oid ma'lumotlar, Janubi-G'arbiy Hisorning neotektonik o'rganilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumotlar tahlili asosida kelib chiqqan tadqiqot vazifalari belgilangan.

Bob to'rt bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda yer qobig'ining harakatlanishi va deformatsiyasini o'rganilishining qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar tarixi va tektonofizik tadqiqotlarining o'rni yoritilgan. Geofizik tadqiqotlarning kengayishi turli Yer fanlari ma'lumotlarini birlashtirgan geodinamika sohasidagi bilimlarni sezilarli darajada boyitish imkonini berganligi qayd etilgan (V.N.Larin, 1980, 2005 - yerning avvaldan gidridli tarkibga egaligi; A.V.Vikulin Yu.L.Rebetskiylarning ishlari) geodinamik jarayonlarning manbasi to'g'risidagi tushunchalarining hali to'la o'rganilmaganligidan dalolat berganligi qayd etilgan. Bobning ikkinchi bo'limida hududlarning neotektonik tuzilishini va harakatlanishini o'rganishda yangicha rutbali tahlil asosidagi metodologik yondashish zarurati yoritilgan va M.V.Gzovskiyning kuchlanish maydoni atamasi ta'rifi berilgan. Rutbali yondashuv asosidagi P.N.Nikolayevning tektodinamik sistemalarining ierarxik modeli tavsiflangan. *Tektodinamik sistema – bu ma'lum bir geologik muhitda tektonik harakatlar, deformatsiyalar va tektonik kuchlanish maydonining munosabatini ifodalovchi model.* Bunday sistemalarning bir nechta rutbalardan iborat ierarxik pog'onalari yer qobig'idagi faoliyati bilan birlashtirilgan tektonosferaning tarkibiy tuzilmasini anglatadi. O'zbekistonda olib borilgan tektonofizik va tektodinamik tadqiqot natijalari qisqacha bayon etilgan.

Bobning uchinchi bo'limida Janubi-G'arbiy Hisorning geologik tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Mintaqaning geologik tuzilishi va tektonikasi bo'yicha

V.M.Seysler, S.V.Ekshibarov, A.V.Pokrovskiy, M.M.Madenov, Sh.U Arslanbekov va b., geologik xususiyatlari va neftgazligi A.M.Akramxo‘jaev, M.E.Egamberdiev, X.X.Mirkamalov, M.N.Nartajiev, G‘.S.Abdullayev, A.N.Bogdanov va b. ishlarida keltirilgan ma‘lumotlar ta‘riflangan. Regionning neotektonikasi va chuqurlik bo‘yicha tuzilishining ayrim jihatlari D.X.Ataboev ishlarida, deformatsion tarixi hamda neftgazligi A.V.Tevelev ishlarida yoritilganligi qayd etilgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida Janubi-G‘arbiy Hisorning neotektonik o‘rganilganligi, turli tadqiqotchilar natijalari bayon etilgan. V.M.Seysler bu yerdagi tektonik elementlarni asosiy ikki zonaga ajratgan – Kugitang-Boysun va G‘uzor – Langar. Bu ikki zonaning ta‘rifi keltirilgan.

S.V.Ekshibarov tomonidan mezozoy-kaynozoy qoplamasida aksini topgan va turli yoshdagi gorizont yuzalari bo‘yicha stratoizogipsalar yordamida ifodalangan paleogen va yura yuzalari bo‘yicha strukturaviy xaritalar tavsiflangan. Bular tadqiqot hududining faqat shimoliy-g‘arb qismini qamragan.

Sh.U.Arslanbekov va K.A.Nabiyev tomonidan janubi-sharq qismini qamrab olgan strukturaviy xaritasining fragmenti keltirilgan. Ular chegaralari ko‘tarilma-surilma shaklga ega yirik Boysun megaantiklinalini ajratishgan (maksimal amplitudasi 6000 m.dan ziyod), gorst-antiklinallar, bir tomonlama gorst-antiklinallar, ikki tomonlama simmetrik gorst-antiklinal tuzilmalari ajratilgan.

Janubi-G‘arbiy Hisorning rivojlanishida yuqori yura davrining tuz-angidrit qatlamlari bu yerning tektonik jarayonlariga ta‘sir qilishi to‘g‘risidagi mulohazalar ta‘riflangan. O.Tojiddinov tomonidan tuz usti hamda tuz osti gorizontlarining strukturaviy xaritalari tuzilganligi bayon etilgan va tuz qatlamining qalinlik xaritasi keltirilgan.

A.V.Pokrovskiy Janubi - G‘arbiy Hisor Paleozoy davrida mustaqil tektonik element sifatida rivojlangani, Janubiy Hisordan alohida rivojlangani va undan yirik chuqur yoriq bilan chegaralangani qayd etilgan va geologik tarixdagi alohida bir xususiyat sifatida e‘tiborga olib qo‘yish lozim deb ta‘kidlab o‘tilgan.

A.V.Tevelev va B.V.Georgiyevskiy Janubi - G‘arbiy Hisor hududining tuzilmalari burmali-ustki surilmali deb barcha yuzaga yaqin hosilmalari alloxtonli (qoplamali) turiga kiritishgan. Shu bois, Janubi-G‘arbiy Hisorning tuzilishining tabiati divergentli deb qayd etishgan va buning asosiy sababini Tojik botiqligini uning tagiga surilib kelishi deb qabul qilishgan. Bu mualliflarning Mezozoy (yura va bo‘r) yotqiziqlari paleotsen va eotsen yotqiziqlari bilan birgalikda yagona strukturaviy etajni tashkil qiladi deb ta‘kidlashgan. Ularning o‘zlari yura-eotsen formatsiyalari kesimda yirik transgressiv va regressiv seriyalarning almashinuvi bilan aniq sikl ko‘rinishga ega deb qayd etishgan. Bu masala yuzasidan savol tug‘iladi - Yura yotqiziqlari dengiz fatsiyasi bo‘lsa, bo‘r yotqiziqlari esa quruqlikda hosil bo‘lgan bo‘lsa, keyingi eotsen qatlamlari ham dengiz sharoitida bo‘lsa - ularni qanday qilib bir strukturaviy etajga kiritish mumkin. Bu masala yuzasidan ritmostratigrafik tahlil asosida mezozoy-kaynozoy tarixida R.A.Umurzakov tomonidan uchta rutbaga tegishli ritmostratigrafik komplekslar ajratilgan edi. Ularning umumiy geoxronologik ko‘rinishi tariflangan.

Dissertatsiyaning «**Turli darajadagi neotektonik xaritalar tuzish va tog‘ massivlarning kinematikasini hamda dinamikasini o‘rganish metodlari**» deb

nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya tadqiqoti oldiga qo'yilgan vazifalarini yechish uchun amalda qo'llanilgan metodlar yoritilgan. Tektodinamik tahlil quyidagi amallarni bajarishni taqozo etadi:

1. O'rganilayotgan hududda tektodinamik sistemalarni ajratish – ularni soni, makondagi kattalik ko'rsatkichlarini aniqlash;
2. Tektodinamik sistemalar soni va kattalik ko'rsatkichlari asosida tektonik xaritalarni rutbali tarkibiy qismlarga ajratish;
3. Tegishli rutbalardagi tektodinamik sistemalarining kuchlanish maydonlarini aniqlash;
4. Turli rutbalarga tegishli tektodinamik sistema elementlarini sintez qilish va tektodinamik modelini tuzish va tavsiflash.

Tektodinamik sistemalarni ajratish – ularni soni, makondagi kattalik ko'rsatkichlarini aniqlashda yer yoriqlarining (shu qatorda zilzila o'choqlarining) joylashuv xususiyatlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Buning imkoniyati tektodinamik sistema butunlik xususiyatiga ega ma'lum bir hajmda faoliyat yuritishidadir. Butunlik xususiyati kuchlanish maydoni bir hilliligi bilan tavsiflanishi kerak va yoriqlar hamda zilzila o'choqlarining joylashuv hususiyati bilan aniqlanishi mumkinligi O'zbekiston hududi uchun R.A.Umurzakov tomonidan ta'kidlangan va uchta rutba tektodinamik sistemalar ajratilgan. Birinchi, ikkinchi va uchinchi darajadagi tektodinamik sistemalar rutbalariga tegishli hajmlar aniqlangan: 300-800 km chuqurligi 35 kmdan yuqori; 180 - 240 km chuqurligi 20-22 km gacha, 60-80 km chuqurligi 0-7 km gacha. Bu ko'rsatkichlar keyingi bosqichdagi neotektonik harakatlarining turli rutbalarga tegishli xaritalarini tuzishda ishlatilishi qayd etilgan.


Rutbali neotektonik harakatlar xaritalarini tuzish uchun, avvalom bor, tuzilgan strukturaviy xaritalar birlamchi material sifatida olib, aniqlangan uch kattalikga mos va xarita mashtabida tanlangan "siljish oynachasi" yordamida xaritada amplituda ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari hisoblanadi va oynacha o'rtasiga yoziladi. Eng katta oynacha yoradamida hisoblangan o'rtacha amplitudalar xaritasi I rutba tuzilmasining shaklini ifodalaydi. Ikkinchi oynacha yordamida hisoblangan xaritada amplitudalar qiymati I rutba harakat amplitudalarini o'z ichiga olgan bo'ladi. II darajadagi xaritani tuzish uchun bu qiymatlardan I darajali amplitudalarni ayirish kerak. III darajadagi xaritasini tuzish uchun eng kichik oynachada hisoblangan o'rtacha qiymatlardan ikkinchi oynada hosil qilingan raqamlarni ayirish lozim. Hosil bo'lgan ayirma raqamlari III rutba xaritasining tashkil qiladi. Ushbu usulning nomi dekompozitsiya (P.N.Nikolayev bo'yicha).

Bobning ikkinchi bo'limida kuchlanish maydonlarini o'rganishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflangan. Tektonofizika fani asoschisi M.V.Gzovskiyning tektonik kuchlanish maydoni to'g'risidagi ta'riflari va uslubiy tavsiyalari bayon etilgan. Tektonik kuchlanish maydonlarini o'rganish geologik va fizik tadqiqot usullaridan foydalangan holda keng geologik material asosida hal qilinishi kerak. Tektonik kuchlanish maydonlarining asosiy turlarini aniqlash uchun birinchi navbatda xarakterli tabiiy obektlarni o'rganish kerak. Bu turli burmalar va tog' jinslaridagi boshqa deformatsiyalarni hamda tektonik yoriqlarni tegishli talqin qilish orqali amalga oshiriladi. Qo'llanilgan geologik usullar tavsifi keltirilgan (M.V.Gzovskiyning usuli, O.I.Gushchenkoning darzliklarning kinematik tahlili

usuli hamda P.N.Nikolayevning darzliklarning statistik o'lchovlari asosida assimetrik yoyilish xususiyatlarini aniqlash usuli).

Bobning uchinchi bo'limi tog' massivlaridagi siljish alomatlari va ular yordamida kuchlanish maydonini tiklash metodikasi tavsiflangan. Ushbu tadqiqot ishida O.I.Gushchenko tomonidan ishlab chiqilgan - darzliklarning yuzalarida saqlanib qolgan siljish oynalaridagi siljish izlari qayd etishga asoslangan. Ularning (yuzalarning) yotish elementlari va izlarning burchaklari o'lchanib Vulf setkasiga tushiriladi (1-rasm).

Diagrammaga tushirilgan darzliklar "qutblarida" siljish yo'nalishi ifodalangan.




Yo'nalishlarning tahlili asosida bosqichma-bosqich bir nuqtadan har tomonga yo'nalgan holat aniqlanadi. Bu nuqtaga siqish o'qi to'g'ri keladi. Cho'zilish o'qi joylashgan nuqtasiga esa barcha "vektorlar" intilishi kerak.

1-rasm. Darband qishlog'i oldida 3-2019 kuzatuv punktda o'lgangan siljish yuzalari ma'lumotlari asosida O.I.Gushchenko usulida bosh kuchlanish o'qlarini aniqlash (bosh normal kuchlanish o'qlari: σ_1 – cho'zilish, σ_2 – oraliq, σ_3 – siqilish; τ_{max} – maksimal urinma (yuzaviy) kuchlanishlar o'qlari).

Bu usul yordamida kuzatuv punktlaridagi kuchlanish maydonlari tiklanadi. Ma'lum uchastka yoki region uchun umumiy maydon tiklash kerak bo'lganda barcha punktlardagi diagrammalar birlashtiriladi va o'rtacha ko'rsatkich olinadi.

Bobning uchinchi bo'limida darzliklarning bevosita statistik o'lchovlari



asosida turli darajadagi kuchlanish maydonlarini tiklash metodikasi bayon etilgan. Darzlanish jarayonida darzliklar zichligining taqsimlanishi assimetrik yoyilish xususiyatiga ega. Yoyilish bir tomonga yo'nalgan asosiy deformatsiya jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu yoyilishning tahlili sinish darzliklar tizimining bir vaqtda hosil bo'lgan juftligini (paragenezini) aniqlash imkonini beradi. Bunga asosan o'qlarning nomlari aniqlanadi – yoyilish siqish o'qidan tashqariga yo'nalgan (2-rasm).

2-rasm. Darzlanish jarayonida assimetrik yoyilish xususiyati. Zichlikning maksimumi siqilish o'qiga yaqinroq joylashgan.

Bu usulni qo'llashda, darzliklar o'lchovi dala sharoitida uzluksiz olib borilishi kerak. O'lchovlarning optimal soni 100-gacha bo'lishi kerak. Kuzatuv punktidagi barcha o'lgangan darzliklar to'g'ri to'rtburchakli matritsa diagrammasiga tushirilib siljish oynacha yordamida zichligi hisoblanadi. Ilk oynacha 4x4 kattalikda bo'ladi. Matritsada raqamlar maydoni asosida izochiziqalar o'tkazilib, maksimumlar aniqlanadi. Bu matritsa kuzatuv punktidagi birlamchi ma'lumotlar toifasiga kiradi. Chunki bu ma'lumotlar asosida kuchlanish maydonining turli darajadagi rutba o'qlari aniqlanadi. Kuzatuv punktidagi matritsa siljish

oynachasining (birlik katakchasi 5° (yotish burchagi) $\times 10^\circ$ (azimut)) - 6x6, 9x9, 10x10 kattaliklarida, toki matritsada ikki simmetrik yoyilishi bilan namoyon bo'lgan maksimum paydo bo'lguncha zichlik hisoblanadi. Bu ma'lumotlar asosida Vulf setkasida kuchlanish diagramma chiziladi. Ushbu diagramma kuzatuv nuqtadagi massivning birinchi (yoki keyingi rutbaga tegishli) darajali kuchlanish maydonini ifodalashi mumkin. Butun o'rganilayotgan regionning turli rutba kuchlanish maydonlarini aniqlash uchun barcha kuzatuv punktlarining 4x4 matritsada aniqlangan barcha maksimumlar bir matritsaga tushiriladi – umumlashtirilgan (svodnaya) matritsa deb nomlanadi va turli rutbalarga tegishli kuchlanish o'qlarini aniqlashda ishlatiladi.

Dissertatsiyaning «**Janubi-G'arbiy Hisorning turli darajadagi neotektonik harakatlar va deformatsiyalarining strukturaviy xaritalari va xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Janubi-G'arbiy Hisorning neotektonik harakatlari xususiyatlari to'g'risida, umumlashgan interferentsion hamda turli rutbalarga ajratilgan shakllarining tavsifi keltirilgan. Bob uch bo'limdan iborat.

Bobning birinchi bo'limida darajalarga ajratilmagan neotektonik harakatlari va defomatsiyalarining interferentsion ko'rinishi xaritasi tavsiflangan. Bunday sharoitda ko'rinish berib turgan tektonik tuzilmalari ko'plab omillarning birgalikda ta'siri asosida hosil bo'lgan. Bunday xaritalar sabab va oqibat bog'lanishini aniq ko'rsatib beraolmasligi, shu bois, neotektonik harakatlar xaritalarini darajalarga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Janubi-G'arbiy Hisor uchun neotektonik xaritalari: amplitudalarining izochiziqlar xaritasi hamda yer yoriqlarining xaritasi tuzilgan. Bu xaritalar keyinchalik darajalarga bo'lingan xaritalar tuzish uchun birlamchi material bo'lib xizmat qilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida neotektonik harakatlar va defomatsiyalarining birinchi va ikkinchi darajali tarkibiy qismlari ulushlarining tavsifi keltirilgan. Birinchi darajali neotektonik xaritada butun hudud neotektonik davrda yuqoriga qarab harakatlangan. Maksimal amplituda shimoli-sharqiy qismida (Xo'japir tog'lari yaqinida) kuzatiladi, bu yerda maksimal amplitudasi 4600-4800 metrni tashkil qiladi. Umumlashgan (darajalarga parchalanmagan) xaritasida maksimal amplituda qiymati 5800-6000 metrni tashkil qilgan. Birinchi darajali harakatlarining amplituda qiymatining o'zgarishi - janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonda umumiy pasayishi kuzatiladi. Avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslanganda R.A.Umurzakov tomonidan Tyan Shanning g'arbiy qismi uchun tuzilgan birinchi darajadagi xaritasi bilan mos keladi.


Ikkinchi darajali neotektonik harakatlar xaritasi shaklida shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha cho'zilgan yagona megaantiklinal (Boysun-Kugitang deb nomlangan) ko'tarilmasi namoyon bo'lgan. Uning maksimal amplitudasi 2500 metr, Boysuntog'-Surxontog' tizmalarining tugash joyiga to'g'ri keladi. Hududning shimoli-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlarida amplituda (-) 500 dan (-) 1500 metrgacha botiqlik shakliga ega. Bu xarita Tyan Shanning g'arbiy qismi uchun R.A.Umurzakov tomonidan tuzgan ikkinchi darajali neotektonik xarita bilan taqqoslanganda umumiy mos kelishi qayd etilgan.

Bobning uchinchi bo'limida uchinchi darajali neotektonik deformatsiyalar xaritasi tav'sifi keltirilgan. Bu xaritada lokal ko'tarilmalar va tushirmalar yaqqol tashlanib turibdi. Lokal ko'tarilmalar va tushurmalarining umumiy shimoli-sharqiy (janubiy-g'arbiy) yo'nalishi mavjud bo'lib, ularning nisbiy amplitudasi 1000-1500 metr. Ular antiklinal zonalarga birlashtirilgan shaklda namoyon bo'ladi. Janubi-G'arbiy Hisorning asosiy tuzilmalarining shakllari uchinchi darajali xaritada ifodalanganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bularga Surxontog', Boysun-Kugitang, Chakchartog', shimolda Lyangar-Karail, janubi-g'arbda Tyubegatan ko'tarilmalari namoyon bo'lgan. Boysun ko'tarilmasining maksimal cho'qqisi 2000 metr. Boysun-Kugitang va Surxontog' ko'tarilmalarining qanotlari assimetrik tuzilishga ega - janubi-sharqiy qanoti tikroq, shimoli-g'arbiylari esa yassi. Ko'tarilishlarning bu xususiyatlari V.M.Seysler, Sh.U.Arslanbekov ishlarida ham qayd etilgan.


